

HISOBOT

Aholi va keng jamoatchilik fikrini o'rganish orqali "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash bo'yicha so'rovnoma natijalari

So'rovnoma o'tkazilgan davr: **2026-yil 22-iyun - 30-iyun**

Jami respondentlar soni: **688 nafar**

Hududiy qamrov: **Respublikaning 14 ta hududi**

1. Kirish

Ushbu hisobot “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash maqsadida aholi va keng jamoatchilik o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarini umumlashtiradi. So‘rovnoma 2026-yil 22-iyundan 30-iyungacha bo‘lgan davrda o‘tkazilgan bo‘lib, unda Respublikaning barcha viloyatlari, Toshkent shahri hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasidan jami 688 nafar fuqaro ishtirok etgan.

So‘rovnoma 13 ta savoldan iborat bo‘lib, ular orqali respondentlarning temir yo‘l xizmatlaridan foydalanish tajribasi, xizmatlar sifati va shaffofligi, kadrlar siyosati, murojaatlar bilan ishlash tizimi, korrupsiyaga oid xabar berish aloqa kanallari haqida xabardorligi, shuningdek tashkilotga bo‘lgan umumiy ishonch darajasi o‘rganildi. Yig‘ilgan ma‘lumotlar miqdoriy tahlil qilinib, har bir savol bo‘yicha alohida xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

2. So'rovnoma metodologiyasi

So‘rovnoma onlayn shaklda o‘tkazilgan bo‘lib, ishtirok respondentlar uchun ixtiyoriy va anonim tarzda tashkil etilgan. Quyida tadqiqotning asosiy parametrlari keltirilgan:

- O‘tkazilgan sana: 2026-yil 22-iyun — 30-iyun (9 kun davomida)
- Respondentlar soni: 688 nafar
- Savollar soni: 13 ta (yopiq va ochiq turdagi savollar)
- Hududiy qamrov: 14 ta hudud (barcha viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi)
- Maqsad: aholi va jamoatchilikning tashkilot faoliyatidagi korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi, xizmatlar shaffofligi va xodimlar faoliyatiga nisbatan ishonch darajasini baholash

Respondentlarning hududiy taqsimoti

Javob varianti	Soni	Ulushi
Farg'ona viloyati	136	19,8%
Sirdaryo viloyati	94	13,7%
Toshkent shahri	91	13,2%
Toshkent viloyati	85	12,4%
Jizzax viloyati	70	10,2%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	53	7,7%
Qashqadaryo viloyati	43	6,3%
Surxondaryo viloyati	27	3,9%
Buxoro viloyati	26	3,8%
Namangan viloyati	21	3,1%

Javob varianti	Soni	Ulushi
Samarqand viloyati	20	2,9%
Andijon viloyati	15	2,2%
Navoiy viloyati	5	0,7%
Xorazm viloyati	2	0,3%
Jami	688	100%

3. So'rovnoma savollari bo'yicha batafsil tahlil

Ushbu bo'limda so'rovnomaning har bir savoli bo'yicha olingan natijalar, ularning foiz ko'rsatkichlari hamda har bir savol asosida ishlab chiqilgan amaliy tahlil va tavsiyalar keltirilgan.

1-savol. Siz so'nggi bir yil ichida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ yoki uning tizim tashkilotlari xizmatlaridan foydalanganmisiz?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Ha	441	64,1%
Yo'q	247	35,9%
Jami	688	100%

Tahlil

Respondentlarning 64,1 foizi (441 kishi) so'nggi bir yil ichida temir yo'l xizmatlaridan bevosita foydalangan. Bu ko'rsatkich so'rovnoma natijalarining katta qismi real foydalanuvchi tajribasiga asoslanganligini, demak olingan baholarning amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

2-savol. Agar foydalangan bo'lsangiz, qaysi xizmat turidan foydalandingiz?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Boshqa	323	46,9%
Yo'lovchi tashish xizmatlari	297	43,2%
Yuk tashish xizmatlari	39	5,7%
Qurilish-montaj xizmatlari	17	2,5%
Aralash (bir nechta xizmat turi)	12	1,7%
Jami	688	100%

Tahlil

Yo'lovchi tashish xizmati respondentlar orasida eng ko'p qayd etilgan aniq xizmat turi bo'lib, 297 kishi (taxminan 43%) buni belgilagan. “Boshqa” toifasining yuqori ko'rsatkichi respondentlarning turli yordamchi va qo'shimcha xizmatlardan ham foydalanishini ko'rsatadi. Bu taqsimot tashkilotning asosiy faoliyat yo'nalishi — yo'lovchi tashish sohasiga jamoatchilik e'tiborining yuqoriligini tasdiqlaydi.

3-savol. Sizga ko'rsatilgan xizmatlar sifatini qanday baholaysiz?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Yaxshi	440	64,0%
Qoniqarli	209	30,4%
Qoniqarsiz	39	5,7%
Jami	688	100%

Tahlil

Javoblarning umumiy 94,3 foizi ("Yaxshi" va "Qoniqarli") xizmatlar sifatidan qoniqishni bildiradi, bu yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga, 39 kishi (5,7%) xizmatlardan qoniqmaganligini bildirgan, bu esa xizmat sifatini barqaror ushlab turish va undan ham yuqori darajaga olib chiqish ustida ishlash zarurligini ko'rsatadi.

4-savol. Sizingcha, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tizimida korrupsiya xavfi qaysi sohalarda nisbatan yuqori?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Korrupsiya xavfi mavjud emas deb hisoblayman	331	52,7%
Boshqa	166	26,4%
Ishga qabul qilish va kadrlar bilan ishlash sohasida	53	8,4%
Xaridlar sohasida	19	3,0%
Yo'lovchi tashish sohasida	19	3,0%
Yuk tashish sohasida	17	2,7%
Qurilish va pudrat ishlari sohasida	17	2,7%
Tovar-moddiy boyliklarni saqlash va hisobga olish sohasida	6	1,0%
Jami	628	100%

Tahlil

So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 52,7 foizi Jamiyat faoliyatida korrupsiya xavfi mavjud emas deb hisoblagan. Mazkur natija Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish va profilaktika yo'nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar respondentlarning katta qismi tomonidan ijobiy baholanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim respondentlar tomonidan ishga qabul qilish va kadrlar bilan ishlash (8,4%), xaridlar (3,0%), yo'lovchi tashish (3,0%), yuk

tashish (2,7%) hamda qurilish va pudrat ishlari (2,7%) sohalari korrupsiya xavfi ehtimoli mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar sifatida qayd etilgan.

5-savol. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tizimida xaridlarni amalga oshirish jarayonining shaffofligini qanday baholaysiz?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Yaxshi	391	56,8%
Qoniqarli	248	36,0%
Qoniqarsiz	49	7,1%
Jami	688	100%

Tahlil

Xarid jarayonlari respondentlarning 92,8 foizi tomonidan ijobiy (“Yaxshi” yoki “Qoniqarli”) baholanmoqda. respondentlarning 7,1 foizi ushbu jarayonni qoniqarsiz deb baholagan.

6-savol. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tizimida ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash jarayonlarining shaffofligini qanday baholaysiz?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Yaxshi	367	53,3%
O‘rta	244	35,5%
Past	77	11,2%
Jami	688	100%

Tahlil

So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 53,3 foizi ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash jarayonlarini “Yaxshi”, 35,5 foizi “O‘rta” deb baholagan. Umuman olganda, respondentlarning 88,8 foizi mazkur jarayonni ijobiy yoki o‘rta darajada baholagan. Shu bilan birga, 11,2 foiz respondent ushbu jarayonni “Past” deb baholagan.

7-savol. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga munosabatni qanday baholaysiz?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Yaxshi	388	56,4%
O‘rta	268	39,0%
Past	32	4,7%

Javob varianti	Soni	Ulushi
Jami	688	100%

Tahlil

Respondentlarning 56,4 foizi murojaatlar bilan ishlash jarayonini “Yaxshi” deb baholagan, 39,0 foizi (268 kishi) buni “O’rta” darajada deb hisoblaydi. 4,7 foizi (32 kishi) respondent ushbu jarayonni “Past” deb baholagan.

8-savol. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tizimiga bo‘lgan ishonch darajangizni qanday baholaysiz?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Yuqori	387	56,3%
O’rta	268	39,0%
Past	33	4,8%
Jami	688	100%

Tahlil

Respondentlarning 56,2 foizi tashkilotga nisbatan yuqori ishonch bildirgan. Shu bilan birga, deyarli 39 foizi (268 kishi) o’rta darajadagi ishonchni bildirgani, 4,8 foizi (33 kishi) respondent ushbu jarayonni “Past” deb baholagan.

9-savol. Siz “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning rasmiy veb-saytidagi korrupsiyaga oid holatlar haqida xabar berish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallari (ishonch telefoni, rasmiy veb-sayt, elektron pochta va boshqalar) haqida ma’lumotga egamisiz?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Ha	349	50,7%
Yo‘q	339	49,3%
Jami	688	100%

Tahlil

So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 50,7 foizi korrupsiyaga oid holatlar haqida xabar berish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallari haqida ma’lumotga ega ekanligini bildirgan, 49,3 foizi esa bu borada yetarli ma’lumotga ega emasligini qayd etgan. Ushbu natija aloqa kanallari bo‘yicha xabardorlikni yanada oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

10-savol. Zarurat tug'ilganda korrupsiyaga oid holatlar haqida belgilangan tartibda xabar berishingiz mumkin deb hisoblaysizmi?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Ha	516	75,0%
Bilmayman	140	20,3%
Yo'q	32	4,7%
Jami	688	100%

Tahlil

So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 75,0 foizi zarurat tug'ilganda korrupsiyaga oid holatlar haqida belgilangan tartibda xabar berishi mumkinligini bildirgan. Shu bilan birga, 20,3 foizi bu borada ikkilanayotganini, 4,7 foizi esa xabar bera olmasligini qayd etgan.

11-savol. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ xodimlarining odob-axloqi va muomala madaniyatini qanday baholaysiz?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Yaxshi	433	62,9%
O'rta	228	33,1%
Past	27	3,9%
Jami	688	100%

Tahlil

Respondentlarning 62,9 foizi xodimlarning muomala madaniyatini yuqori baholagan. Bu so'rovnomadagi eng yuqori ijobiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, xizmat ko'rsatish madaniyati yaxshi darajada ekanligini tasdiqlaydi.

12-savol. Sizingcha, "O'zbekiston temir yo'llari" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar o'z samarasini bermoqdami?

Javob varianti	Soni	Ulushi
Ha, natija bermoqda	452	65,7%
Fikr bildirishga qiynalaman	166	24,1%
Yo'q, faoliyatni takomillashtirish lozim	70	10,2%
Jami	688	100%

Tahlil

Respondentlarning 65,7 foizi amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish choralari natija bermoqda deb hisoblaydi. Bu tashkilot tomonidan olib borilayotgan islohotlarning jamoatchilik tomonidan ijobiy qabul qilinayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 10,2 foiz respondent (70 kishi) faoliyatni yanada takomillashtirish zarurligini bevosita ta'kidlagan.

13-savol. Korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar (ochiq savol)

Ushbu savol ochiq shaklda berilgan bo'lib, 688 respondentdan 619 nafari unga matn ko'rinishida javob qoldirgan. Javoblarning katta qismi (taxminan 46%) "Taklifim yo'q", "Bilmayman" kabi aniq tavsiya keltirmagan javoblardan iborat bo'lsa, 22 foizga yaqin javoblar mavjud holatdan qoniqishni bildirib ("Yaxshi", "Hammasi yaxshi"), qolgan qism — taxminan 32 foiz respondent aniq takliflar bildirgan.

Eng ko'p uchragan takliflar quyidagilarni qamrab oladi:

jarayonlarni raqamlashtirishni kengaytirish inson omilini kamaytirish;

xaridlar va kadrlar bilan ishlash jarayonlarida shaffoflikni yanada oshirish;

ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish;

korrupsiya haqida xabar bergan shaxsni xavfsizlik kafolatini mustahkamlash;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini ko'paytirish va kengaytirish.

5. Umumiy xulosa

O'tkazilgan so'rovnoma natijalari "O'zbekiston temir yo'llari" AJ faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida sezilarli ijobiy tendensiyalar mavjudligini ko'rsatdi. Respondentlarning ko'pchiligi xizmatlar sifati, xodimlar muomala madaniyati va tashkilotga bo'lgan umumiy ishonch darajasini ijobiy baholamoqda, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni samarali deb hisoblamogda (65,7%).

Shu bilan birga, tahlil natijalari uchta asosiy muammoli yo'nalishni aniqladi:

birinchidan, xarid jarayonlari va kadrlar bilan ishlash shaffofligi boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan sezilarli darajada past baholanmogda;

ikkinchidan, korrupsiyaga oid xabar berish kanallari haqida jamoatchilikning deyarli yarmi xabardor emas;

uchinchidan, ochiq javoblarda jamoatchilik tomonidan eng ko'p talab qilingan yo'nalish jarayonlarni keng ko'lamda raqamlashtirishdir.

Ushbu uchta yo'nalish bo'yicha maqsadli choralar ko'rilishi tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini va jamoatchilik ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

6. Yakuniy tavsiya va takliflar

1. **Xaridlar jarayonlarining ochiqligi hamda hisobdorligini oshirish:** davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq xaridlar reja-jadvallari, xarid qilish tartib-taomillari bo'yicha e'lonlar, xarid hujjatlari, tuzilgan shartnomalar hamda qonunchilikda oshkor etilishi belgilangan boshqa ma'lumotlarni davlat xaridlarining maxsus axborot portali orqali elektron tizimga joylashtirish, shuningdek, zaruratga ko'ra belgilangan tartibda tegishli hujjatlarni Jamiyatning rasmiy veb-saytida rasmiy veb-saytida e'lon qilib borish.

2. **Murojaatlar bilan ishlash hamda kadrlar bilan ishlash jarayonlarida** amaldagi shaffoflik va ochiqlik mexanizmlarini izchil takomillashtirish.

3. **Korrupsiya to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari to'g'risida xabardorlikni oshirish:** ishonch telefoni hamda boshqa aloqa kanallari to'g'risidagi ma'lumotlarni temir yo'l vokzallari, Jamiyatning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali targ'ib qilish.

4. **Korrupsiya to'g'risida xabar bergan jismoniy va yuridik shaxslarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlarini ta'minlash:** korrupsiya to'g'risida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish va ularni har qanday ta'qib va tazyiqdan himoya qilish mexanizmlarini ichki idoraviy hujjatlarda belgilash, ularni amaliyotga joriy etish hamda ushbu kafolatlarning bajarilishini ta'minlash.

5. **Jamoatchilik bilan doimiy muloqotni saqlash:** erishilgan natijalar haqida muntazam axborot berish va shunga o'xshash so'rovnomalarni yiliga kamida 2 marta o'tkazib, dinamikani kuzatib borish.

6. **Xodimlarning korrupsiyaga qarshi bilim va ko'nikmalarini oshirish:** kadrlarni tanlash, xarid komissiyalari, texnik nazorat va qurilish jarayonlarida ishtirok etuvchi xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi qonunchilik, xizmat etikasi, manfaatlar to'qnashuvi va halollik standartlari bo'yicha muntazam o'quv seminarlari tashkil etish.

7. **Jamiyatda raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish orqali inson omilini kamaytirish:** yo'lovchi tashishda elektron chipta tizimi (e-ticketrailway.uz) va yuk tashishda "Yagona darcha" (E-nakl) platformasi joriy etish va hamda ishlarni izchil davom ettirish.